



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Muallif: Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi¹

Affiliatsiya: Xalqaro Nordik universiteti "Psixologiya va maktabgacha ta'lism kafedras" assistenti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14406037>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida musiqa to'garaklarini tashkil etishda innovatsion yondashuvni tashkil etish, samarali tushuntirish, musiqa to'garaklarida innovatsion o'qitish tajribasining bola ongiga ta'siri va xozirgi zamonga mos yangi texnologiyalar asosida innovatsion yondoshuvini o'rganishning ahamiyatli tomonlari, musiqa ritmlari va tovushlarini tinglash orqali bolalarda musiqiy qobiliyatlarini shakillantirish haqida ma'lumot berilgan. Mazkur mavzu maktabgacha ta'lism tashkilotlarining musiqa to'garaklarida innovatsion faoliyatni tashkil etishning muhim jihatlari va faoliyat davomida qo'llanishining dolzarbliqi namoyon etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, musiqa to'garaklari, texnologiya, interaktiv o'yin, vizual, mobil ilova, integratsiya, ritm, cholg'u asboblar va boshqalar.

Yurtboshimiz mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lism-tarbiya jarayoniga samarali ta'lism va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limga samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirmoqda, shu bilan bir qatorda maktabgacha ta'lism tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib, so'nggi yillarda bir qator muhim qarorlarni imzoladi. 2019-yil 19-iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 605-sonli qaror Maktabgacha ta'lism sohasiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish loyihalarini amalga oshirish uchun eksperimental maydonchalarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida va asosiy maqsad sifatida maktabgacha ta'lism tizimiga ilg'or xorijiy tajriba joriy etilishini ta'minlash, maktabgacha ta'lism sohasida eng yangi metodikalarni moslashtirish va ulardan samarali foydalanish, sog'lom va har tomonlama kamol topgan bolani voyaga yetkazish ko'rsatildi. Ushbu qarorda maktabgacha ta'limga tashkil etish sohasida ilg'or xorijiy tajribani, maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lism va tarbiya berish sohasida innovatsion usullar va samarali pedagogik amaliyotlarni o'rganish, davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlari faoliyatiga jalb etish va joriy etish bo'yicha ishlarni doimiy asosda tashkil etish ko'rsatildi. Shuningdek maktabgacha ta'lism tashkilotlarida musiqa to'garaklari faoliyatida han innovatsion yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu albatta bolalarning ijodiy qobiliyatlarini va fikrlash qibiliyatlarini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion musiqaning ahamiyati katta, chunki innovatsion musiqiy faoliyat bolalarda fikrlash qobiliyatlarini uyg'otish, ularni idrok yo'naliishiga yo'naltirishni va zamonaviy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda juda yaxshi vosita hisoblanadi. Maktabgacha ta'lif bolalarning intellektual, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda ta'lif sifatini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Innovatsion musiqa ham shu o'rinda davr talabida hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lifda innovatsion musiqa to'garaklari bolalarning musiqa san'atiga qiziqishini oshiradi va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa to'garaklari bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirib, ularni turli musiqiy janrlar bilan tanishtiradi. Innovatsion texnologiyalar yordamida faoliyat olib borish bolalar uchun yangi musiqa tajribasini yaratadi. Innovatsion musiqa to'garaklari bolalarning hissiy rivojlanishiga va o'zini ifoda etish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlarda interaktiv o'yinlar va musiqiy mashqlar yordamida bolalarning fikrlash qobiliyati va motorikasi rivojlantiriladi. Maktabgacha ta'lif muassasalarida bunday to'garaklar bolalarni ma'daniy boyitish va musiqa ma'daniyati bilan tanishtirishning muhim vositasidir. Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lifda innovatsion musiqa to'garaklari bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlanish va ijodkorlikni oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va usullardan keng foydalilaniladi. Quyida ayrim davlatlarning tajribasi bilan tanishishingiz mumkin:

1. AQSh

- Musiqiy texnologiyalardan foydalanish keng tarqalgan. Virtual reallik (VR) va interaktiv audio platformalar yordamida bolalar musiqa yaratish va o'rganishga jalb etiladi.
- "Music Together" kabi dasturlar bolalarni oilaviy musiqa tajribasiga jalb qilish orqali ijtimoiy va hissiy rivojlanishni ta'minlaydi.

2. Finlandiya

- "Taidekasvatus" (san'at ta'lifi) orqali bolalar musiqa va boshqa san'at turlari bilan integratsiyalangan ta'lif oladi.
- Bolalarning musiqiy ritm va ohangni his qilish qobiliyatini rivojlanish uchun interaktiv musiqiy o'yinlardan foydalilaniladi.

3. Yaponiya

- Musiqa to'garaklarida an'anaviy va zamonaviy asboblarni birlashtirgan holda darslar o'tkaziladi.
- Kodaly, Orff va Dalcroze kabi musiqiy pedagogika yondashuvlari o'yin asosidagi o'rganishni ta'minlash uchun qo'llaniladi.

4. Germaniya

- Orff-Schulwerk metodikasi asosida bolalar musiqani harakat, o'yin va improvizatsiya orqali o'rganadi.
- Raqamli musiqa dasturlari va sensorli qurilmalardan foydalanib, bolalarning ijodkorlik darajasini oshirishga e'tibor qaratiladi.

5. Janubiy Koreya

- "Smart Class" tizimlari bolalarga raqamli texnologiyalar yordamida musiqa darslarini interaktiv ravishda o'tkazish imkonini beradi.

- Mashg'ulotlar robot yordamchilar va sun'iy intellekt orqali individual o'quv rejalarini qo'llab-quvvatlaydi.

6. Avstraliya

- Musiqiy terapiya usullari bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun maktabgacha ta'limga joriy etilgan.

- Musiqiy mashqlar bolalarning nutqini rivojlantirish va o'rganishga yordam berish uchun maxsus dasturlar orqali amalga oshiriladi.

7. Kanada

- Darslarda musiqa va raqsni birlashtirgan holda o'yinchoq asboblar yordamida o'quvchilarning qiziqishini oshirishga e'tibor beriladi.

- Interaktiv ovozli kitoblar va mobil ilovalar musiqa darslarini boyitadi.

Xorijiy mamlakatlarning bunday tajribalari bolalarning musiqiy saviyasini oshirish bilan birga, ularning ijtimoiy va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu usullar bolalarning musiqa orqali hayotni tushunishini kengaytiradi va madaniyatlararo aloqalarni kuchaytiradi.

Binobarin, biz ham ushbu mamlakatlardagi tarbiyaviy yondashuvlarni qadriyatlarimizga asoslangan holda innovatsion musiqa to'garaklari jarayonida qo'llash mumkinligini tavsiya etamiz.

1. Interaktiv texnologiyalar: Musiqa to'garaklarida raqamli texnologiyalar, interaktiv ekranning qo'llanilishi bolalarning diqqatini jalb qilishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, musiqiy o'yinlar yoki bolalar uchun maxsus yaratilgan mobil ilovalar orqali musiqa asboblari va ovozlar bilan tanishtirish mumkin.

2. STEM yondashuvi bilan integratsiya: Musiqani boshqa fanlar, masalan, matematika yoki til bilan bog'lash orqali bolalar turli qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Masalan, ritmik mashgi'ulotlar orqali hisoblash qobiliyatları yoki turli tildagi qo'shiqlarni o'rganish orqali til o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlash mumkin.

3. Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari: Virtual haqiqat orqali bolalar turli musiqa asboblarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu usul an'anaviy usullardan farq qiladi va ularga yanada qiziqarli ko'rindi.

4. Musobaqa va loyiha asosida o'rgatish: Bolalar uchun kichik musobaqalar va musiqiy loyihalarni amalga oshirish motivatsiyani oshiradi. Masalan, bolalar o'rtasida musiqa asboblaridan foydalanib, jamoaviy yoki yakka tartibda ijro qilishlarini qo'llab-quvvatlash orqali jamoaviylik va ijodiy yondashuvni rivojlantiriladi.

5. Bolalarning qiziqishlariga moslashtirilgan dasturlar: Har bir bolaning qiziqishlari va iste'dodiga mos ravishda individual yondashuvlar ishlab chiqish, ularda o'ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu yondashuvlar maktabgacha ta'limga musiqa to'garaklarini tashkil etishda bolalarning qiziqishini oshiradi, ularning ijtimoiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va zamonaviy texnologiyalar yordamida yangi bilimlar olishiga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar orqali musiqa va ritmlarni o'rgatish bolalarning ijodkorligi, diqqatni jamlash qobiliyati va musiqiy eshitish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv nafaqat musiqiy iste'dodni rivojlantiradi, balki bolalarning umumiyligini intellektual va hissiy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Innovatsion musiqa faoliyatini tashkil etishda turli qiziqarli vositalardan foydalanish tavfsiya etiladi. Masalan, interaktiv dasturlar, virtual musiqa vositalari va audiovizual vositalar yordamida bolalarning musiqaga bo'lgan qiziqishini

oshirish mumkin. Musiqa ritmlari va tovushlarini tinglash orqali bolalarda musiqa eshitish qobiliyati va ijodkorlik shakllanadi. Bu esa bolalarni musiqaga nisbatan qiziqtirib, ularning badiiy dunyoqarashini boyitadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa to'garaklarini tashkil etishda innovatsion yondashuvni samarali joriy etish usullari ko'rsatib berilgan. Bu esa o'qituvchilar va pedagoglar uchun foydali qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

Maqlolada keltirilgan innovatsion metodlar va vositalar pedagoglar uchun muhim yo'rqnoma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, interaktiv dasturlar, virtual musiqa vositalari va audiovizual materiallardan foydalanish bolalarning musiqaga bo'lgan qiziqishini oshirishda va ijodkorligini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Шунингдек, bolalarning musiqiy ko'nikmalari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilib, ularni har tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, bunday yondashuv zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida muhim qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Babayarov E.K. Innovatsion didaktika orqali MTTda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati va natijadorligiga erishish yo'llari. Toshkent: Spanish international scientific online conference PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE.

Isroilov A.I.(2023). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali.15-son.

Davydenko, V. A. (2015). Bolalar psixologiyasi va rivojlanishi: maktabgacha yoshda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Moskva: Pedagogika nashriyoti.

Jalolov, J. (2018). Musiqa ta'limi asoslari: nazariy va amaliy qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston Davlat pedagogika universiteti nashriyoti.

Vygotskiy, L. S. (2004). Bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Toshkent: Iqbol nashriyoti.